



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

2023- YIL YANVAR-SENTABR


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KO‘RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- oktabr holatiga O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 34 876 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya’ni 7 177 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 20,6 % i Toshkent shahrida joylashgan.

2023- yil 1-oktabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


Toshkent sh.	7 177
Farg‘ona	2 966
Toshkent	2 907
Qashqadaryo	2 669
Buxoro	2 661
Samarqand	2 517
Surxondaryo	2 421
Andijon	2 130
Qoraqalpog‘iston R.	1 896
Xorazm	1 785
Namangan	1 669
Jizzax	1 560
Navoiy	1 429
Sirdaryo	1 089



Fuqarolik obyektlarini
qurish



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari





Bino va inshootlar
qurilishi

Shuningdek, Toshkent shahrida 7 177 ta (respublika bo‘yicha ularning jami soniga nisbatan 20,6 %), Farg‘ona viloyatida – 2 966 ta (8,5 %) qurilish korxonalarini mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-sentabr uchun)


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 107 793,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati, %da




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (26221,5 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (9947,7 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatida (7207,8 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 69,8 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,0 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 9,2 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 125,3 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 70,5 % i yoki 76 029,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 23 128,9 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 30,4 % ni tashkil etdi.

30,4 %

23 128,9
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 35 784,0 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 47,1 % ni tashkil etdi.

47,1 %


35 784,0
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 17 116,6 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 22,5 % ni tashkil etdi.

22,5 %


17 116,6
mlrd. so‘m

Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (15 351,8 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (6 365,5 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (4 890,6 mlrd. so'm) va Buxoro viloyatida (4 835,7 mlrd. so'm) qayd etildi.



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **75 202,4 mlrd. so'm**

26,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari

19 667,2
mlrd. so'm

2022- yilning mos davriga nisbatan

110,4 %

47,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

35 871,4
mlrd. so'm

2022- yilning mos davriga nisbatan

104,0 %

26,1 %

Norasmiy sektor

19 663,8
mlrd. so'm

2022- yilning mos davriga nisbatan

96,6 %

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 26,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga ko'payidi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % punktga kamayib, 47,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamayib, 26,1 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Maʼlumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 83,1 % i), Navoiy viloyati (79,3 %) va Surxondaryo viloyati (75,6%) da kuzatildi.



Jizzax viloyati
83,1 %



Navoiy viloyati
79,3 %



Surxondaryo viloyati
75,6%

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. so'm*

25,9 %

Yirik qurilish
tashkilotlari

5 847,0

mlrd. so'm

2022- yilning mos
davriga nisbatan

95,4 %

74,1 %

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar

16 734,2

mlrd. so'm

2022- yilning mos
davriga nisbatan

109,2 %

0,0 %

Norasmiy
sektor

11,2

mlrd. so'm

2022- yilning mos
davriga nisbatan


73,9 %

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 25,9 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 74,1 % (2,7 % punktga ko'paydi).

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 72,3 % i), Sirdaryo viloyati (37,7 %) va Buxoro viloyati (26,8 %)da kuzatildi.



72,3 %
Samarqand viloyati



37,7 %
Sirdaryo viloyati



26,8 %
Buxoro viloyati

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm

2 288,6

mlrd. so'm

Yirik qurilish tashkilotlari

2022- yilning mos davriga nisbatan

90,7 %

7 709,9

mlrd. so'm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022- yilning mos davriga nisbatan

141,4 %

22,9 %

Jamiga nisbatan ulushi

77,1 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,7 % punktga kamaydi va 22,9 % ni tashkil etdi.


Qolgan 77,1 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,7 % punktga ko'paydi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Maʼlumot uchun:

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Namangan viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 17,3 % i), Toshkent shahri (15,7 %) va Toshkent viloyatida (12,8 %) kuzatildi.



17,3 %

Namangan viloyati



15,7 %

Toshkent sh.




12,8 %

Toshkent viloyati

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

105,0 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –


109,1 %

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –

96,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 27 802,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,3 % ga kamayib, 25,8 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Jamiga nisbatan ulushi



Toshkent sh.



Qashqadaryo viloyati




Fargʻona viloyati

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Toshkent shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 29,2 % i), Qashqadaryo viloyatida (24,7 %) va Fargʻona viloyatida (20,5 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,0 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ni tashkil etgan holda 60 315,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos
davriga nisbatan
104,5 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan
105,0 %

29 715,2
mlrd. so'm

35 038,4
mlrd. so'm

42 310,3
mlrd. so'm

51 612,9
mlrd. so'm

60 315,4
mlrd. so'm

2019

2020

2021

2022

2023

141,5 %

105,6 %

109,1 %


oldingi yilning mos
davriga nisbatan

oldingi yilning mos
davriga nisbatan


oldingi yilning mos
davriga nisbatan

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar


Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m




Jamiga nisbatan ulushi



Toshkent shahri



Samarqand viloyati




Toshkent viloyati

Ma‘lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (16176,9 mlrd. so‘m), Samarqand viloyatida (5422,7 mlrd. so‘m) va Toshkent viloyatiga (5298,2 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 18,2 % ni yoki 19 675,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,6 % ni tashkil etdi. Shundan 14 578,4 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 97,2 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 2 383,2 mlrd. soʻmni va 81,0 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 2 713,4 mlrd. soʻmni va 111,6 % ni tashkil etdi.

oldingi yilning mos davriga nisbatan
90,0 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan
111,0 %

10 865,4
mlrd. soʻm

11 285,8
mlrd. soʻm

14 742,9
mlrd. soʻm

18 097,2
mlrd. soʻm

19 675,0
mlrd. soʻm

2019

2020

2021

2022

2023

110,9 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan

115,6 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan

96,6 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

	891,8
Qoraqalpogʻiston Resp.	1 330,9
Andijon	1 990,2
Buxoro	561,0
Jizzax	1 451,6
Qashqadaryo	1 427,7
Navoiy	1 765,3
Namangan	566,6
Samarqand	1 316,1
Surxondaryo	178,8
Sirdaryo	2 662,3
Toshkent	1 565,6
Fargʻona	1 569,0
Xorazm	2 398,3
Toshkent sh.	



2 662,3 mlrd. soʻm
Toshkent viloyati



2 398,3 mlrd. soʻm
Toshkent shahri




1 990,2 mlrd. soʻm
Buxoro viloyati

Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent viloyatida (2 662,3 mlrd. soʻm), Toshkent shahrida (2 398,3 mlrd. soʻm) va Buxoro viloyatida (1 990,2 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-sentabr oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 3 036,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 104 756,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 2,8 % va 97,2 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,6 % i), Surxondaryo viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,5 % i) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 98,2 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 71 203-80-00 (1161)